

BUYRUQ

100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani
Amir Temur shoh ko'chasi 4-uy

Tel.: +998 71 207 46 51 (1104), **Aloqa markazi:** 1285

E-xat: mikrokreditbank@exat.uz **www.mkbank.uz**

«16» «iyun» 2025 yil.

№ 45

O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunning 20-moddasi hamda "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Boshqaruvining 2023-yil 16-avgustdagi "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki tizimida bank ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi 115-1-sonli qaror bilan tasdiqlangan Nizomning 6-bandiga asosan, Bank Boshqaruvi tomonidan 2025-yil 21-mayda tasdiqlangan 36-sonli Buyruqning ilovasiga o'zgartirish kiritish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki tizimida bank ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha Xarid komissiyasining yangi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki tizimida bank ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha komissiya raisi etib Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b **I. Djumaniyazov** tayinlansin.

3. Boshqaruv raisi o'rinbosari vaqtincha ishda bo'lmagan davrda "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Boshqaruv raisi hamda uning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalar taqsimotiga asosan vazifa bajaruvchi Boshqaruv raisi o'rinbosari Xarid komissiyasiga raislik qiladi.

4. Komissiya a'zolaridan biri vaqtinchalik ishda bo'lmagan (mehnat ta'tili, ishdan bo'shagan va h.k) davrda uning vazifalarini tarkibiy tuzilma o'rinbosari (vaqtincha vazifasini bajaruvchi (v.v.b yoki v.b)) bajaradi.

5. Ichki nazorat va sanksiyaviy komplaens departamenti tanlash ishtirokchi korxonalari, uning rahbariyat va asoschisi yetakchi davlatlar moliyaviy tashkilotlari tomonidan sanksiyaviy ro'yxatga kiritilgan yoki kiritilmaganligi va Korrupsiyaga qarshi nazorat departamentlari ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan kuzatuvchi sifatida Xarid komissiyasi tarkibiga kiritilsin, hamda tanlash/tender xaridlari bo'yicha kelib tushgan

takliflarni bir-biriga affillanganligi shuningdek, bankka aloqadorligi yuzasidan qat'iy nazorat o'rnatilsin.

6. Mazkur buyruq ijrosi ustidan nazorat Boshqaruv raisi o'rinbosari **I. Djumaniyazov** zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv raisi v.b



O.Butayev

kelishuvchilar: S.Salamov, I.Djumaniyazov, A.Mustafayev, I.Mamadjanov, B.Allaniyazov, Sh.Ibragimova

<https://hujjat.mkb.uz?pin=yP97nE27&id=d75dc3e1-c8a1-4ebc-a9a9-ea9521c7949a>